TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI

Samandarov Jaloliddin Melixurozovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusining
"iqtisodiyot va kompyuter injiniringi" kafedrasi o'qituvchisi
jaloliddinsamandarov442@gmail.com
Tel:+998942454451

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida mehnat bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirish jarayonlarining rivojlanishi natijasida mehnat bozorining tarkibi va kasbiy talablar o'zgarib borayotgani ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida yangi kasblarning paydo bo'lishi, ayrim kasblarning qisqarishi hamda raqamli ko'nikmalarning mehnat bozoridagi ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В данной статье анализируются изменения, происходящие на рынке труда в контексте четвертой промышленной революции. Состав рынка труда и профессиональные требования меняются в результате развития цифровых технологий, искусственного интеллекта, робототехники и процессов автоматизации. В исследовании освещается появление новых профессий, упадок некоторых профессий и важность цифровых навыков на рынке труда. В контексте современной экономики большое значение имеют развитие человеческого капитала, повышение цифровой грамотности и развитие системы непрерывного образования.

Abstract. This article analyzes the changes taking place in the labor market in the context of the fourth industrial revolution. The composition of the labor market and professional requirements are changing as a result of the development of digital technologies, artificial intelligence, robotics, and automation processes. The research highlights the emergence of new professions, the decline of certain professions, and the importance of digital skills in the labor market. In the context of the modern economy, the development of human capital, increasing digital literacy, and the development of a continuous education system are of great importance.

Kalit so'zlar: to'rtinchi sanoat inqilobi, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, robototexnika, raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова: четвертая промышленная революция, рынок труда, цифровая экономика, искусственный интеллект, автоматизация, робототехника, цифровые технологии.

Keywords: fourth industrial revolution, labor market, digital economy, artificial intelligence, automation, robotics, digital technologies.

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan muhim jarayonlardan biri to'rtinchi sanoat inqilobi hisoblanadi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Sun'iy intellekt, robototexnika, Internet of Things (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data) hamda bulutli texnologiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'llanilmoqda. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda va mehnat bozorining tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda.[1]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Hozir dunyoda shunday fundamental o'zgarishlar ro'y bermoqdaki, dunyo tarixida bu darajadagi buyuk imkoniyatlar ham, bunchalik katta potensial havflar ham bo'lmagan. Ayrim tarmoqlar yetakchilarining fikrlash doirasining torligi va "inqilobiy" emasligi, rivojlanish strategiyalarini to'xtatib qo'yishi mumkin. Sun'iy intellekt, robotlashtirish, addetiv texnologiyalarning ommalashuvi (ya'ni 3D bosmada hatto metall detallar va ehtiyot qismlarini tayyorlash), nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar va boshqa ko'plab narsalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'rtinchi sanoat inqilobi mehnat bozorining tuzilmasini o'zgartirib, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda inson kapitalini rivojlantirish va raqamli ko'nikmalarni oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.[2]

METODOLOGIYA

To'rtinchi sanoat inqilobi va uning mehnat bozoriga ta'siri masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda texnologik taraqqiyotning iqtisodiyot va bandlik tizimiga ta'siri keng tahlil qilingan.

Nemis iqtisodchisi Klaus Schwab o'zining "The Fourth Industrial Revolution" asarida to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy xususiyatlari va uning iqtisodiyot hamda mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt, robototexnika, katta ma'lumotlar va raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, yangi kasblarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee tomonidan yozilgan "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalar rivojlanishining iqtisodiyot va mehnat bozoriga ta'siri o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, avtomatlashtirish jarayoni ayrim kasblarning qisqarishiga olib kelishi mumkin, biroq yangi texnologiyalar bilan bog'liq yangi kasb va mutaxassisliklar paydo bo'lishiga ham zamin yaratadi.[3]

Iqtisodchi olim A. Vahobov o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining rivojlanishi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.[4]

Sh. Shodmonov va U. G'afurov o'z ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tizimning transformatsiyasi jarayonini tahlil qilib, yangi texnologiyalar mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni oshirishini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.[5]

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli iqtisodiyot va mehnat bozorining transformatsiyasi masalalari o'rganilgan. O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlash, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va mehnat bozorini modernizatsiya qilish masalalari muhim ahamiyatga ega ekani qayd etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari keng miqyosda avtomatlashtirilmoqda. Robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, inson mehnatini qisman almashtirmoqda. Natijada oddiy va takrorlanuvchi ishlar qisqarib bormoqda. Yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi. Texnologik rivojlanish bilan bir qatorda yangi kasblar ham shakllanmoqda. Masalan, sun'iy intellekt mutaxassisi, ma'lumotlar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tahlilchisi, kiberxavfsizlik mutaxassisi, robototexnika muhandisi kabi kasblar zamonaviy mehnat bozorida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat bozori talablarining o'zgarishi, Zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar xodimlardan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash, analitik fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va innovatsion yondashuv zamonaviy mutaxassislar uchun muhim omil hisoblanadi. Masofaviy ish shakllarining rivojlanishi raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida masofadan turib ishlash imkoniyatlari kengaymoqda. Internet orqali turli platformalar yordamida freelancing, onlayn xizmatlar va masofaviy ish shakllari rivojlanmoqda. Bu esa mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirmoqda.



1-rasm, Mehnat bozori tizimini raqamli transformatsiya qilishda axborot texnologiyalarining sxemasi

Raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy mehnat bozori tubdan o'zgarib, axborot texnologiyalariga asoslangan raqamli mehnat bozoriga o'tmoqda. Ushbu jarayonda qog'oz shaklidagi hujjatlar, an'anaviy ish o'rinlari hamda klassik statistika va hisob tizimlari o'rnini onlayn

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

platformalar, masofaviy mehnat, raqamli fikr va izohlar almashinuvi egallaydi. Bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt asosidagi tahlillar mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish hamda innovatsion yechimlarni joriy etishga xizmat qiladi. Natijada mehnat samaradorligi oshib, bandlik darajasi yaxshilanadi va yangi ish o'rinlari shakllanadi.

Hozirgi bosqichda mehnat bozorining ishlashi va rivojlanishiga nisbatan iqtisodiy fikrlarning turli yo'nalishlarini namoyon qilish majmuaviy shartlarini tahlil qilib, mehnat bozori – bu har qanday mamlakatda iqtisodiyotdagi, ayniqsa ijtimoiy jihatdan, bozor munosabatlarini rivojlantirish holati va chuqurlashish istiqbollarini muayyan darajada ko'rsatadigan bozor mexanizmidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, to'rtinchi sanoat inqilobi mehnat bozorida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ayrim kasblarga bo'lgan talab kamayib borayotgan bo'lsa, boshqa tomondan yangi texnologik kasblar paydo bo'lmoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyatda insonlarning raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi va doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. https://lex.uz/docs/-6600413.
2. Головенчик, Г. Г. Трансформация рынка труда в цифровой экономике
Цифровая трансформация. – 2018. – No 4 (5). – С. 27–43.
3. Erik Brynjolfsson, Sandy Pentland, Nathaniel Persily, Condoleezza Rice, Angela Aristidou, "Introduction: Artificial Intelligence and Democracy", Stanford Digital Economy Lab, September 2024
4. Maxammadiyev, M. M. Mehnat bozorini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. I.f.f.d. dis avtorer. – T.: TDIU. 2023.:
5. Демиденко С.Ю. Молодежь на рынке труда (по материалам круглого стола) // Социол. исслед. - 2018. - N 4. - С.164-166.
6. Абдувохидов А.М., Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy International Journal of Instruction. 2020/11/15.;
7. Kenjabaev A.T., Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'z-o'zini band qilish muammolari T:,- 2021 yil 18- may
8. Abduraxmanov K.X., Haitov A.A. Mehnat bozori va aholini ish bilan taminlash muammolari. – Toshkent: RIA TF, 2010. – 72 b;

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.